

**O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi**  
**“Islomshunoslik” yo‘nalishi 4 – kurs talabasi**  
**Lapasov Muhammadsodiq**

**ISLOM HUQUQIDA DINIY IJTIMOIY MASALALAR VA ULARNING  
AHAMIYATI**

Diniy ijtimoiy masalalar mavzusining dolzarbligi jamiyatning turli darajalarda rivojlanishini va uchrashadigan muammolarni aks ettiradi. Zamonaviy dunyoda dinning jamiyatdagi roli va uning a’zolarining hayotiga ta’siri ko‘p qirrali mohiyat kasb etadi. Islom huquqining qo‘llanilishida zamonaviy dunyo sharoitida ham, xalqaro standartlar va inson huquqlariga hamohanglikni ta’minalash masalalari dolzarbdir. Bu jihatdan, islom huquqi printsip va yondashuvlarini zamonaviy tushunchalar bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishlar mavjud ko‘rshimiz mumkin. Shu sabablarga binoan, diniy ijtimoiy masalalar mavzusining dolzarbligi jahon siyosati, ijtimoiy tadqiqotlar va kundalik hayot amaliyotida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Din va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi munosabatlar tushunilishi va boshqarilishi jamiyatning yaxlitligi va turmush darajasining yaxshilanishi uchun zarurdir.

Islom huquqi insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratadi. Bu, diniy erkinliklar, shaxsiy hurmat va inson qadr-qimmatiga hurmat ruhida ifodalangan. Shu sabablarga ko‘ra, diniy ijtimoiy masalalar yechimida islom huquqining ahamiyati mavzusi nafaqat musulmon jamiyatlari balki butun dunyo miqyosida muhokama qilinishi kerak bo‘lgan dolzarb mavzudir. Ushbu mavzu doirasida islom huquqining zamonaviy jamiyatlardagi o‘rni va qo‘llanilishi, hamda uni muasir muammolarga yechim topishda qanday qilib integratsiyalash mumkinligi kabi masalalar o‘rganilishi lozim.

Islom huquqi jamiyatda adolatli munosabatlarni rag‘batlantiradi. Bu esa ijtimoiy tengsizliklar va nohaqliklarga qarshi kurashda muhim hisoblanadi. Shariat qonunlari, boylik va resurslarni adolatli tarzda taqsimlanishini, shuningdek, jamiyatda insonlar bir-birlariga yordam berishlarini ta’kidlaydi. Islom huquqi orqali ijtimoiy ahillik va hamjihatlikni mustahkamlash mumkin. Bu qonunlar, jamoat ichida o‘zaro tarbiyaviy va

madaniy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash orqali ko'plab ijtimoiy muammolarga yechim topishga hissa qo'shamdi. Shuningdek, islom huquqi oilaviy munosabatlarni muhofaza qiluvchi prinsiplarga asoslangan. Bu esa nikoh, farzand tarbiyasi, meros va oilaviy mehribonlik kabi masalalarda aniq ko'rsatmalar beradi.

O'zbekistonda ham diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar milliy va diniy qadriyatlarimizni o'rganish hamda uni jamoatchilikka yetkazishda keng imkoniyatlarni yaratmoqda. Buning natijasi o'laroq zamonaviy olimlar tomonidan islom huquqi rivojiga ulkan hissa qo'shgan Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya", Ubaydulloh ibn Mas'udning "Muxtasarul viqoya", Alouddin Kosoniyning "Badaoe'us-sanoe" kabi asarlarning o'zbek tilidagi izohli tarjimasi amalga oshirildi. Islom dini manbalari, xususan, islom huquqiga doir asarlarni o'rganish hamda ulardagি diniy-ijtimoiy va axloqiy masalalarning zamonaviy muammolarni hal etishdagi ahamiyatini ochib berish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Ijtimoiy odoblarning o'qitilishi va o'rganilishi yoshlarning his-tuyg'ularini va jamiyatda muvaffaqiyat qilish uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini rivojlantiradi. Ularga adolat, hurmat, mehribonlik, sodiqlik va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganishadi. Shuningdek, ijtimoiy odobiyot yoshlarga jamiyatda o'zlarining o'rnini topishda ham yordam beradi. Ularning qanday guruhda qanday muomala qilishlari, qaysi holatda yordam bermoqchi bo'lishlari va qanday situatsiyalarda qanday amallar ko'rsatishlari kerakligini o'rganishlari muhimdir.

Jamiyat ijtimoiy hayotini tartibga solishda oilaviy munosabatlar juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar, insonlarning bir-birlari bilan aloqalarini, o'zaro qarashlarni, qo'llab-quvvatlashni va ko'maklashishni o'rganishning muhim yo'lidir. Bu munosabatlar, jamiyatni o'stiruvchi kuch bo'lib, insonlarning manfaat va barqarorligi ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

Oilaviy munosabatlar insonlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi va o'zaro qarashlarni muhokama qilish va boshqalar bilan ahillikda bo'lishga imkoniyatini yaratadi. Bu munosabatlar o'zgaruvchilik va o'zaro hurmat asosida tuzilgan bo'lishi kerak. Oilaviy

munosabatlar, ota-onalar, bolalar, ukalar, do'stlar va boshqalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kabi turli turlarda bo'lishi mumkin.

Biroq, oilaviy munosabatlar jamiyatning mustaqil va barqaror bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Yaxshi ota-onalar va oila a'zolari o'rtasidagi qiziquvchilar, muammo va yomoniyatlarni yechish uchun birgalikda ishlashadi. Bu esa jamiyatda tinchlik, muvaffaqiyat va salomatlikni oshiradi.

O'zbek xalqi hayotining hattoki dunyoviy tomoni ham hayotning barcha jabhalarida ildiz otgan islom merosi va madaniyatiga asoslangan ta'limotlar bilan aralashib ketgan. Vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat, ilm olish uchun rag'bat islom axloqi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan axloqiy majburiyatlarga misol bo'la oladi. Bu fazilatlar islom urf-odatlaridan kelib chiqib, mакtab ta'lumi va oila tarbiyasi orqali kundalik hayotga singdirilgan.

### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ziyodov Sh. Diniy-ma'rifiy islohotlarda yana bir muhim qadam. "Xalq so'zi" gazetasi 2021 yil, 28-iyul, 157-son.
2. Abdulvahhob Xallof. Usulul fiqh (islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar. – T.: "Adolat", 1997.
3. J. Toshqulov. Islomda soliq huquqi. – T.: "Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi", 2017.
4. N. Yusupova. Fiqh I. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 143.